



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

1991-2021-YILLARDA ANDIJON VILOYATIDA XUSUSIY MAKTABLARNING PAYDO BO'LISHI, SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Nigmatova Sadoqatxon G'ulomaxmadovna
Farg'ona davlat universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqolada 1991-2021-yillarda Andijon viloyati xalq ta'limi tizimida xususiy sektorning shakllanish bosqichlari ilmiy tahlil qilingan. Maqolada xususiy maktablarning paydo bo'lishiga turtki bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy omillar, huquqiy bazaning takomillashuvi hamda 2017-yildan keyingi "yangi davr" islohotlarining hududiy ta'lim sifatiga ta'siri ochib berilgan. Arxiv materiallari, statistik to'plamlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida viloyatdagi xususiy maktablar dinamikasi, muammolari va istiqbollari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Andijon viloyati, xususiy maktab, nodavlat ta'lim muassasasi, ta'lim bozori, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, innovatsiya, ta'lim sifati, intellektual mulk, litsenziyalash, 1991-2021 yillar.

ПОЯВЛЕНИЕ, СТАНОВЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ ЧАСТНЫХ ШКОЛ В АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ В 1991–2021 ГОДАХ

Нигматова Садокатхон Гуломахмадовна
Ферганский государственный университет, докторант (PhD)

Аннотация

В данной статье научно проанализированы этапы формирования частного сектора в системе народного образования Андижанской области в 1991 году по 2021 год. В статье раскрываются социально-экономические факторы, способствовавшие возникновению частных школ, совершенствование правовой базы, а также влияние реформ «новой эры» после 2017 года на качество регионального образования. На основе архивных материалов, статистических сборников и нормативно-правовых актов изучены динамика, проблемы и перспективы частных школ области.

Ключевые слова: Андижанская область, частная школа, негосударственное образовательное учреждение, рынок образования, Национальная программа подготовки кадров, инновация, качество образования, интеллектуальная собственность, лицензирование, 1991-2021 гг.

THE EMERGENCE, FORMATION, AND DEVELOPMENT OF PRIVATE SCHOOLS IN ANDIJAN REGION (1991–2021)

Nigmatova Sadoqatxon G'ulomaxmadovna
Fergana State University, PhD Student

Abstract

This article scientifically analyzes the stages of formation of the private sector in the public education system of the Andijan region in 1991 to 2021. The article reveals the socio-economic factors that triggered the emergence of private schools, the improvement of the legal framework, and the impact of the "new era" reforms after 2017 on the quality of regional education. Based on archival materials, statistical collections, and normative-legal acts, the

dynamics, problems, and prospects of private schools in the region are studied.

Key words: Andijan region, private school, non-state educational institution, education market, National Program for Personnel Training, innovation, quality of education, intellectual property, licensing, 1991-2021.

O'zbekiston Respublikasi 1991-yilda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, sobiq Ittifoqdan meros qolgan ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan ta'lim tizimini isloh qilish va uni bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish dolzarb vazifaga aylandi. Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Andijon viloyati kabi aholi zich joylashgan, demografik o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan hududlarda ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab yil sayin ortib bormoqda. Bu esa mavjud ta'lim infratuzilmasini kengaytirish, sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash va ta'lim xizmatlari diversifikatsiyasini ta'minlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Hududda davlat ta'lim muassasalari bilan bir qatorda nodavlat ta'lim tashkilotlari ham mazkur ehtiyojni qondirishda tobora faol ishtirok etmoqda. Nodavlat sektor ta'lim xizmatlari bozorida muqobil va raqobatbardosh muhitni shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda o'quv dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish orqali muhim rol o'ynamoqda. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, 1991-2021 yillar oralig'ida Andijon viloyatida ta'lim tizimi faqat davlat tasarrufida bo'lishdan bosqichma-bosqich aralash iqtisodiyot shakliga o'tdi. Xususiyl maktablarning paydo bo'lishi shunchaki tadbirkorlik faoliyati emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy buyurtmaning natijasi edi.

Tadqiqotning maqsadi – Andijon viloyatida xususiyl maktablarning evolyutsiyasini, ya'ni ularning dastlabki kurtaklaridan to zamonaviy ta'lim klasterlariga aylanishigacha bo'lgan yo'lni ilmiy asosda yoritishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mavzuni yoritishda tarixiy-qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni o'rganish va hujjatlar tahlili metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini O'zbekiston Respublikasining 1992 va 2020-yillarda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlari[1:3] 1997-yilgi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"[2:4], hamda Prezident Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 15-sentabrda PQ-3276-son "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [3:2], ta'lim sohasidagi farmon va qarorlari tashkil etadi.

Xususan, mahalliy olimlardan R.H.Djurayev, X.F.Rashidovlarning ishlarida O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, pedagoglarning faoliyati, o'qitish metodikasi kabi masalalari yoritilgan bo'lsa-da, aynan hududiy kesimda (Andijon misolida) nodavlat ta'lim muassasalarining tarixi yetarlicha o'rganilmagan [4:27]. Xorijiy tadqiqotchilardan S.Heyneman va A.De Young Markaziy Osiyo ta'lim tizimidagi o'tish davri muammolarini tahlil qilganlar[5:12]. Ularning fikricha, post-sovet hududida xususiyl ta'limning rivojlanishi davlat byudjeti taqchilligi va ta'lim sifatiga bo'lgan talabning oshishi o'rtasidagi ziddiyat mahsulidir.

TAHLIL VA MUHOKAMA

Andijon viloyatida xususiyl maktablarning rivojlanish tarixini shartli ravishda uchta asosiy bosqichga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

1-bosqich: 1991-1997 yillar -O'tish davri qiyinchiliklari va xususiyl ta'limning "yashirin" shakllanishi

Mustaqillikning ilk yillarida Andijon viloyati ta'lim tizimi chuqur inqirozni boshdan

kechirdi. Maktablarning moddiy-texnik bazasi eskirgan, o'qituvchilarning ijtimoiy himoyasi pasaygan edi. 1992-yilgi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun nodavlat ta'lim muassasalarini ochishga huquqiy ruxsat bergan bo'lsa-da, amalda Andijonda birorta ham to'laqonli xususiy maktab ochilmadi. Bunga sabab iqtisodiy beqarorlik bo'lib, aholining to'lov qobiliyati past edi. Inflatsiyaning oshib borishi, demografik o'sishi yuqori bo'lgan Andijon viloyatida o'tish davrining dastlabki yillarida iqtisodiy holatning og'irligi xususiy maktab ochishga katta tavakkalchilikni talab qilardi. Qolaversa, ota-onalar ongida -"Ta'lim faqat davlatniki va bepul bo'lishi kerak" degan tushuncha hukmron edi. Biroq, aynan shu davrda "repetitorlik" instituti shakllana boshladi. Andijon shahridagi 30-maktab, 50-maktab kabi nufuzli davlat maktablarining kuchli o'qituvchilari o'z uylarida yoki maktab xonalarida qo'shimcha pullik darslarni tashkil etdilar. Bu jarayonni xususiy ta'limning boshlang'ich davri deb atash mumkin. Asaka va Shahrixon tumanlarida ham oliy o'quv yurtlariga tayyorlovchi yakka tartibdagi o'qituvchilar faoliyati kuchaydi[6:3].

2-bosqich: 1998-2016 yillar -Islohotlar va turg'unlik davri

1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" O'zbekiston ta'lim tizimida inqilobiy o'zgarish yasadi. Asosiy e'tibor 9 yillik umumiy o'rta ta'limdan so'ng, 3 yillik akademik litsey va kasb-hunar kollejlari majburiy qamrab olishga qaratildi. Andijon viloyatida bu davrda yuzlab yangi kollejlari qurildi. Ammo umumta'lim maktablari (1-9 sinflar) bo'yicha xususiy sektor rivojlanishi juda sust kechdi. Statistik tahlil: 2010-yilga kelib ham Andijon viloyatida litsenziyaga ega bo'lgan nodavlat umumta'lim maktablari soni 5 taga ham yetmas edi. Mavjudlari ham asosan til o'rgatish markazlari maqomida bo'lib, to'liq kunlik maktab funksiyasini bajarmasdi[7:4] Litsenziyalashdagi byurokratiya: xususiy maktab ochish uchun murakkab talablar qo'yilgan edi. Nodavlat ta'lim muassasalariga oddiy tijorat korxonalari kabi soliq solinar edi, bu esa o'qish narxining qimmatlashishiga olib keldi. Shunga qaramay, 2010-2016 yillarda Andijon shahrida "Intellect", "Ziyo" kabi o'quv markazlari bolalarni maktabdan tashqari vaqtda o'qitish bo'yicha katta tajriba to'pladilar. Bu markazlar keyinchalik, 2017-yildan so'ng ochilgan haqiqiy xususiy maktablar uchun kadrlar bazasini tayyorlab berdi.

3-bosqich: 2017-2021 yillar- xususiy maktablarning Renessanssi.

Prezident Sh.Mirziyoyevning, 2017-yil 15-sentabrdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3276-sonli Qaror soha rivojida burilish nuqtasi bo'ldi.

Viloyatidagi o'zgarishlar dinamikasi quyidagicha bo'ldi:

-Xususiy maktablar dastlab 2021-yilgacha keyinchalik 2024-yilgacha barcha turdagi soliq va to'lovlardan ozod qilindi;

-O'qituvchilar va jihozlar uchun imtiyozli kreditlar ajratildi;

-Xorijiy o'qituvchilarni jalb qilishga ruxsat berildi va ularga viza olish yengillashtirildi;

Natijada, 2018-2021 yillar oralig'ida Andijon viloyatida nodavlat ta'lim muassasalarining soni keskin oshdi. Agar 2017-yilda viloyatda sanoqli xususiy maktablar bo'lgan bo'lsa, 2021-yil yakuniga kelib ularning soni 25 tadan oshdi. Ayniqsa, Andijon shahri, Xo'jaobod, Shahrixon, Asaka tumanlarida zamonaviy xususiy maktablar faoliyati yo'lga qo'yildi. Sinflardagi o'quvchilar soni 15-20 nafarni tashkil etdi va asosiy urg'u ingliz tili, rus tili, mental arifmetikasi, robototexnika va IT sohalariga qaratildi. Issiq ovqat, transport xizmati, suzish havzalari va qo'riqlash xizmatining mavjudligi ota-onalarni jalb qiluvchi asosiy omilga aylandi[8:3]. 2021-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Andijon viloyatida nodavlat ta'lim sektorining ulushi umumiy maktab ta'limiga nisbatan 0,5% dan 2% gacha o'sdi[9:3]. Bu raqam kichik ko'rinsa-da, sifat jihatidan katta sakrash edi. Xususiy maktab o'quvchilari fan olimpiadalarida

va xalqaro oliy o'quv yurtlariga kirishda yuqori natijalarni qayd eta boshladilar.

Rivojlanish bilan birga, bir qator tizimli muammolar yuzaga keldi:

-Kadrlar yetishmovchiligi: Malakali, chet tilini biladigan pedagoglar uchun davlat va xususiy sektor o'rtasida kuchli raqobat boshlandi. Xususiy maktablar yuqori maosh taklif qilib, davlat maktablaridagi eng kuchli o'qituvchilarni o'ziga og'dirib oldi. Bu esa "Brain drain" (aqlar oqimi)ning ichki ko'rinishini yuzaga keltirdi[10:2].

-Narx siyosati: Xususiy maktablardagi oylik to'lovlar (o'rtacha 1,5 mln so'mdan 4 mln so'mgacha) viloyat aholisining o'rtacha daromadiga nisbatan yuqori bo'lib qolmoqda. Bu esa ta'limda ijtimoiy tabaqalanish xavfini tug'diradi.

XULOSA

1991-2021 yillarda Andijon viloyatida xususiy maktablarning shakllanishi murakkab evolyutsion jarayonni bosib o'tdi. Ushbu jarayonni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

-Tarixiy zarurat: Xususiy ta'limning paydo bo'lishi shunchaki zamonaviylikni emas, balki jamiyatning sifatli ta'limga bo'lgan real ehtiyojini ifodalaydi. Andijon viloyatidagi demografik o'sish davlat maktablaridagi yuklamani oshirdi, xususiy sektor esa bu yuklamani kamaytirishga yordam beruvchi muqobil kuch sifatida maydonga chiqdi.

-Davlat siyosatining o'rni: Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sohadagi eng katta o'sish davlat tomonidan byurokratik to'siqlar olib tashlanib, soliqliq imtiyozlari berilgan (2017-2021) davrga to'g'ri keldi. Bu esa ta'limda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining samaradorligini isbotlaydi.

Xulosa qilib aytganda, xususiy maktablar Andijon viloyatining intellektual salohiyatini oshirishda muhim yetakchisiga aylanib ulgurdi. Endigi vazifa – xususiy ta'lim sifatini xalqaro standartlarga to'liq moslashtirish va uning aholi barcha qatlamlari uchun ochiqqligini ta'minlashdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Oliy Majlisning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 1992-yil 2-iyul. [lex.uz.https://lex.uz.doc](https://lex.uz.doc) . "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. O'RQ-637-son. 2020-yil 23-sentabr [lex.uz.https://lex.uz.doc](https://lex.uz.doc)
2. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonun. 1997-yil 29-avgust. [lex.uz.https://lex.uz.doc](https://lex.uz.doc)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. 2017-yil 15-sentabrdagi PQ-3276-son "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori. [lex.uz.https://lex.uz.doc](https://lex.uz.doc). 4664567
4. Djurayev.R. Pedagogika. Toshkent 2013. 27 b
5. Heyneman.S. The Rationale for Higher Education Reform in Uzbekistan. Peabody Journal of Education.1998.73/1. 9-20 b
6. Andijon viloyati statistika boshqarmasi. "Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari (1991-2021)". – Andijon, 2022. 3 b
7. Andijon viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi arxivi ma'lumotlari. 2010-yil hisoboti. 4 b
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "O'zbekistonda ta'lim: statistik to'plam". – Toshkent, 2022. – B. 45.
9. Andijon viloyati statistika boshqarmasi. "Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari (1991-2021)". – Andijon, 2022. 3 b
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "O'zbekistonda ta'lim: statistik to'plam". – Toshkent, 2022. – B. 45.